



TARBIYA FANINI O'QITISHDA TARBIYA TRENINGLARI ASOSIDA FAOLIYATNI TASHKIL ETISH

Baxodirova Malikaxon Qobuljon qizi

Qo'qon Universiteti Andijon Filiali

Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

[*baxodirovam@049gmail.com*](mailto:baxodirovam@049gmail.com)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tarbiya metodlari, metod, metodika, haqida umumiy ma'lumotlar, tarbiya fanini o'qitish metodikasi, tarbiya jarayonining ijtimoiy ahamiyati, trening tushunchasi, tarbiyalanuvchilarning axloqiy fazilatlari, tarbiya fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi, boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy trening turlari, ularning mazmuni va mohiyatlari haqida mulohaza qilinadi.

KALIT SO'ZLAR

Metod, metodika, maktab tarbiyasi, axloqiy tushunchalar, trening inovatsion ta'lim, interfaol metodlar, pedagogik mahorat, obyektiv omillar, subyektiv omillar

KIRISH

Tarbiya o'zi nima? Biz nega Tarbiya fanini o'rganamiz? Tarbiya fanining ahamiyati nimada o'zi?

Ta'lim va tarbiya borasidagi ma'lumotlarni bir-biridan ajratib tasavvur qilish mumkin emas. Bu ikkisi bir qushning ikki qanoti kabidir. Biri ikkinchisiz hech



narsa qilolmaydi, balki noqis bo'lib qoladi. Shuning uchun ham dunyoda insoniyatning, shuningdek, yoshlarning tarbiyasi buzilib ketayotgani tog'risida tez-tez tashvishli xabarlar tarqatilmoqda va bu borada odamni daxshatga soluvchi holatlar ham yuz bermoqda. Vaholanki, dunyo xabarlariga e'tibor bersak, XX-XXI asrlarda avvalgi asrlardagiga nisbatan savodsizlikka qarshi jiddiyroq choralar ko'rildi, ta'lim tizimi kuchaytirilib, rivojlantirildi. Umumiy ta'lim kirib bormagan yurt, davlat deyarli hech qayer qolmadi. Hattoki ba'zi mamlakatlar aholisi, o'quvchilari ilm-fan bo'yicha o'zining iste'dodlarini inson ko'zi ko'rmagan, qulog'i eshitmagan yutuq va shon-shuhratni qo'lga kiritishdi. Lekin asosiy ko'zlangan maqsadga haliham erishilayotgani yo'qligiga guvoh bo'lyabmiz. Shuning uchun ham ilm-fan rivojlangan mamlakatlarda tarbiasizlik, axloqsizlik, ma'naviyatsizlik, ilmsizlik va hattoki insonlarga mutlaqo tog'ri kelmaydigan holatlar kundan – kunga dunyoda ko'payib boryapti. Albatta, buning sabablari ko'p. Shulardan biri va eng asosiysi “ Tarbiya” degan buyuk bir ne'matdan, mas'uliyatdan va vazifalardan qochishdir.

Tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayoni hisoblanadi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari rivojlanadi va jamiyat uchun, ijtimoiy hayot uchun o'zining ma'naviy xulq-atvori yaxshi tomonga shakllana boshlaydi.

Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri yo'l tutish eng muhimidir. Faoliyat jarayonida bola tashqi tarafdin kelayotgan har xil ta'sirlarga nisbatan turli xil munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini belgilab beradi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning salbiy va ijobiy holatlarida ta'siri bolaning ularga munosabatiga qanday holda ekanligini ko'rsatadi. Bola faoliyatini rivojlantirishga emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan turli xil ichki kechinmalarni



qanday anglashi, baholashi, his qilishi, faoliyatiga qarab turib rag‘batlantirishi? ulardan o‘zi uchun nimalarni olayotganligini bilishi eng muhimi hisoblanadi. Shuningdek, tarbiya ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishida xizmat qiladi.

Tarbiya fanini o‘qitish metodikasi fani ishlarini to‘g‘ri tashkil etishda muhim vosita bo‘lib, bola shaxsining har tomonlama kamol topishi uchun xizmat qiladi va tarbiyaviy ishlar jarayoniga tegishli bo‘lgan ko‘pgina tarbiyaviy ko‘rinishlarni o‘z ichiga oladi. Tarbiya metodlari ijtimoiy jamiyat tomonidan ta‘lim muassalari oldiga har tomonlama barkamol yosh avlod, erkin, ijod qilayotgan shaxs, mustaqil fikr egasi bo‘lgan shaxsni tarbiyalash vazifasini o‘rgatadi.

Tarbiya metodlari - bu pedagog va o‘qituvchilarning o‘quvchilarga ta‘sir ko‘rsatish usullari, yo‘llari, tarbiyalanuvchilarga barkamol shaxs hislatlarini singdirish va shular orqali ularni metodlar bilan birga tarbiyalash va tarbiya qilish jarayonida pedagogik usullar bilan ishlashdir.

Metodlar tarbiyaning maqsad va mazmuniga bog‘liq holatda yuzaga keladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik darajasini bilish va hisobga olish tarbiya metodlaridan samarali foydalanishning muhim vazifalari hisoblanadi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan birga tarbiya ishlarini olib borganda turli xil usul va vositalarni qo‘llaydi. Tarbiya qilish jarayonining muhim vositasi ham mana shunda. Har xil yo‘llar, usullar bilan tarbiyalanuvchining shaxsini kamol toptirishga hissa qo‘shishdir.

Tarbiya jarayonining ijtimoiy ahamiyati bugungi jamiyatda muhim ahamiyatga ega. Tarbiya tushunchasi millatimizning tarixi va jamiyat taraqqiyotida turli davrlarida turlicha ma’noga ega bo‘lib, har xil tarzda izohlanib kelindi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiyani ma’naviy jihatdan izohlashda yangi pedagogik fikrga ega bo‘lgan holatda qarorlar yuzaga kela boshladi. Hozirda



tarbiyaning irsiy-biologik xususiyatlariga va milliy qadriyatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Milliy tarbiya va xalq nomi va bularning tarixi bir biriga uzviy bog'liqdir.

Tarbiya jarayonini amalga oshirishda ijtimoiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya jarayoni ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi. Ijtimoiy tarbiya bu bolada ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xislatlarni rivojlantirish jarayonidir. Ijtimoiy tarbiya, tarbiya ishlarining aniq maqsad asosida amalga oshiriladigan oila tarbiyasi, mahalla tarbiyasi, maktab tarbiyasi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limida amalga oshiriladigan tarbiya, oliy ta'lim tarbiyasini qamrab oladigan jarayonlardir. Ijtimoiy tarbiyaning vazifasi ham jismonan baquvvat, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, ishlash va yashash qobiliyatiga ega bo'lgan, ma'lum kasb-hunarni egallagan barkamol avlodni shakllantirishdan iboratdir. Ijtimoiy tarbiya orqali shaxsning ijtimoiylashuvi paydo bo'la boshlaydi. Jamiyatga qo'shilganida muloqot qilish layoqatiga ega bo'ladi. Shaxsga kasb-hunar o'rgatish, kishining ma'naviy ongini, qiyofasini shakllantirishga qaratilgan xatti-harakatlar jarayoni ijtimoiy tarbiyadir. bunda shaxs xohlagan soha bo'yicha ta'lim-tarbiya ko'rib, istagan kasbni egallashi mumkin.

Yosh avlodning tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan xalq yoki mamlakat inqirozga uchraydi yoki davlat parokanda bo'ladi. Chunki har qanday mamlakatning rivojlanishi uchun moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish muhim hisoblanadi. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarini shakllantirish uchun uzluksiz ravishda faoliyat ko'rsatadigan tarbiya ishlar tizimi bo'lishi kerak.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish jarayonida treninglarning o'rni kattadir.

Trening-bu talabalarning faol aqliy va nutq faoliyatiga asoslangan darsdir.



Trening – (ingliz tilidan training-train – o‘qitmoq, tarbiyalamoq degan ma’noni anglatadi. Ushbu mashg‘ulotlarda nazariy ma’lumotlarni amaliy mashqlar orqali o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. U ta’lim beruvchi tomonidan o‘qitishni emas, balki tahsil oluvchi

tomonidan mustaqil va faol o‘rganishni ko‘zda tutadi. O‘rganilishi lozim bo‘lgan nazariy bilimlar amaliy ish hamda mashqlar

davomida o‘zlashtirish imkoniyatini beradi va komanda bo‘lib bir yoqadan bosh chiqarib

ishlashga o‘rgatadi.

Trening vazifalari:

□ 1. treningni maqsadini shakllantirish, strategiyani va metodlarni tanlash, trening

algoritmini va axborot materiallarini tayyorlash, natijalarni baholash;

□ 2. tahsil oluvchilarni mustaqil faoliyati va hamkorlikdagi faoliyat asosida bilimlarni

o‘zlashtirishga erishish;

□ 3. har bir tahsil oluvchi ishtirokini kuzatish va amaliy harakatlar asosida muayyan

kompetensiyalarni shakllantirish.

Tarbiya jarayonidagi yana bir muhim narsa axloqiy tarbiyadir. Axloqiy tarbiya bu — shaxsning dunyoqarashini shakllantirishni muhim omili hisoblanadi. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma’naviy, axloqiy tarbiya muhim hisoblanib, uni samarali tashkil etish o‘quvchida axloqiy ongini shakllantirishiga yordam beradi. Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olinib zarur bo‘lgan



xulq-atvor qoidalarini, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish, ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat turlarini hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Axloqiy tarbiyaning asosi axloq va axloqiy me'yorlardir.

Axloq (lotincha „moralis“ — xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi deyiladi. Axloqiy me'yorlar to'g'risidagi bilimlarni o'qituvchilar o'z ko'nikmalariga tayangan holda o'quvchilarning ongiga ta'lim va tarbiya jarayonida singdirilishiga yordam berishadi. Axloqiy tarbiyaning natijasi o'quvchilarda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatning shakllanishida xizmat qiladi. „Axloq“, „xulq“ va „atvor“ so'zlari arabcha so'z bo'lib, ular o'zbek tilida ham o'z ma'nosida qo'llaniladi va bu so'zlar bir biriga uzviy bog'liqdir. Ayrim odamlar „Axloq — kishilarning har bir jamiyatga xos xulq me'yorlari majmuyi“ deyishsa, boshqalar esa „Axloq — ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, hamma sohalarda kishilarning xatti-harakatlarini tartibga solish funksiyasini bajaradi“, deyishadi. Axloqiy tarbiya odamlarni nomusli, vijdonli, adolatli, vatanparvar, mehnatsevar bo'lishiga muhim rol o'ynaydi.

Tarbiya fanining yana bir kerakli mavzusi- "Tarbiya" fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligidir. Shu haqida ham to'xtalib o'tsam.

1. Falsafa

o'quvchilarning, yosh avlodning axloqiy fazilatlarini

rivojlanishi uchun xizmat qiluvchi, dunyoqarash va tafakkurni

shakllantirish vazifasini bajaradi. Tarbiya metodikasi va



amaliyoti sohasidagi muammolarining metodologik, pedagogik, psixologik asoslarini o'rganish va ilmiy-metodik tavsiyalar, ko'rsatmalar ishlab chiqishda falsafiy ma'lumotlarga tayaniladi.

2. Psixologiya tarbiya fanining individ holatidan, shaxs holatiga o'tishi va shaxs sifatida shakllanishidagi ruhiy, individual jihatlarini tadqiq qilishda muhim rol o'ynaydi. Psixologik bilimlar tarbiya sohasidagi muammolarni samarali holda hal etish imkonini

beradi. Chunki, insonning bilish jarayonlari, individual-tipologik

xususiyatlari, hissiy-irodaviy sifatlari haqidagi bilimlar tarbiya

jarayonining muhim yo'nalishlari hisoblanib, tarbiyaviy metodlar va vositalar bu sohada muhim ahamiyat kasb etadi.

«Tarbiya» fani «Pedagogika» fani bilan uzviy bog'liqligini ko'rsak bo'ladi. «Tarbiya» fani o'quvchi-yoshlarda

ma'naviy axloqiy fazilatlarni shakllantirishning muhim manbai

hisoblanganligi sababli, u «Axloqshunoslik» («etika») fani bilan ham chambarchas bog'liq bo'ladi. Shuningdek, «Etika» fani o'quvchi-yoshlarning axloqiy madaniyatini, ularda yuksak

insoniy sifatlarni axloqiy ong, axloqiy taffakur, axloqiy his-tuyg'u

kabilarni tarkib toptirishda muhim o'rin tutadi.

«Tarbiya» fani o'quvchi-yoshlarni tabiatdagi, jamiyatdagi,

shaxsiy hayotda munosabatlarni go'zallik qonuniyatlari asosida fikr yuritishga undaydi. Bunda «Estetika» fani mazmunidagi ma'lumotlar



muhim rol o'ynaydi. «Estetika» shaxs tomonidan voqelikdagi go'zalikni his etilishi, go'zalikni qabul qilishga, uni yaratishga intilishi va shular asosida har bir insonda estetik didni tarbiyalashni nazarda tushadi. Shu o'rinda aytish joizki, go'zallikni his qilgan, idrok qilgan, uni yaratishga intilgan inson go'zal, odob axloqli insondir.

O'quvchilarga darslarni qiziqarli o'tish maqsadida metodlar orqali tushuntirilsa o'quvchi ongiga tez ravishda qabul qilib, eslab qolishi yaxshi rivojlanadi. Avvalo, “interfaol metod o'zi nima?” degan savolga javob beramiz.

“Interfaol” so'zi ingliz tilida interact so'zidan olingan bo'lib, inter— o'zaro ikki taraflama, act— harakat qilmoq degan ma'nolarni ifodalaydi. Interfaol metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, dunyoqarashini shakllantiradi, o'rganilgan bilimlarni mustahkamlashga hamda o'qituvchi tomonidan o'rgatilgan bilimlarni qayta so'rashga ko'maklashadi. Interfaol metodlarga “Aqliy hujum”, “Baliq skeleti”, “Bilaman. Bilishni xohlamayman. Bilib oldim.”, “Blits so'rov”, “Bumerang”, “Venn diagrammasi”, “Zinama-zina”, “Intervyu”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Kungaboqar”, “Savoljavob”, “Suhbat”, “Test”, “FSMU”, “Yelpig'ich”, “Zakovatli zukko”, “Gugurt donalari”, “Idrok xaritasi”, “Yagona davra” kabi turli xil metodlar kiradi.

“Klaster” metodi — ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil

fikrlashga undovchi metod hisoblanadi. “Klaster” metodini amalga oshirishda biror mavzuning asosiy tushunchasi o'rta aylanma shaklidagi chizma ichiga yoziladi. So'ngra shu tushuncha haqida ko'z oldiga kelgan narsalar asosiy tushunchani atrofidagi aylanachalarga yoziladi.



XULOSA:

Tarbiya fanini o'qitishni tashkil qilishning asosiy maqsadi, bugungi kun talabiga javob beradigan barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan ekan, ayni paytda bu o'qituvchilar uchun katta mas'uliyat hisoblanadi. Shu jihatdan ham o'qituvchining pedagogik fikr yuritishi, pedagogik qaror chiqarishi davr talabiga javob bergan bo'lishi shart. O'zbekiston Respublikasining — bosh qonunlaridan ham biri yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash hisoblanadi. Tarbiyani tashkillashtirish jarayonida tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: "iste'dodga, ilmga va mashqqa" degan edi, ulug' olim Arastu.

Bugunga yoshlar dunyoqarashida millat, Ona tuproq, Ona Vatan kabilar turli xil Tarbiya tadbirlar, boy ma'naviy merosimiz haqidagi tushunchalar bilan tarkib topib boradi. Yoshlarni tarbiyalashda ular ongida, millat, milliy axloq, milliy g'urur, milliy tarbiya, milliy g'oya, Vatan tuyg'usi, va shu kabi tushunchalarni singdirib borish, ularning milliy dunyoqarashini kengaytirib borish tarbiya jarayoning asosiy burchi hisoblanadi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.N.Ismoilova. "Psixologik trening asosolari"-Toshkent 2019
- 2.U.Ishmuhammedov, M.Yo'ldoshev. "O'qitishning innovatsion texnologiyalari"-2005
- 3.R.G'.Xoliqov, Q.Y.Yo'ldashev "Pedagogika"
- 4.N.Saidahmedov. "Pedagogik mahorat"
5. A.M.Qarshiboyev "Tarbiya Nazariyasi"
- 6.N.Saidahmedov "Yangi pedagogik texnologiyalar"-2003